Polimer sanoatini rivojlantirish

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida “O’zbekneftegaz” AJ rahbar xodimlari bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kimyo, biologiya, matematika va geologiya sohalarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, olimlar uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek ilm fanning “O’zbekneftegaz” AJ korxonalari bilan uyg’unligini ta’minlash bo’yicha yetakchi olimlar, yosh olimlar, mamalakatdagi ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta’lim muassasalari vakillari oldiga qo’yilgan vazifalar muhokama etildi va O’zbekiston Respublikasi polimer sanoatini rivojlantirish, neft va gaz sanoati uchun mutaxassislar tayyorlash kabi dolzarb masalalar ko’rib chiqildi.

Uchrashuv yakunida O’zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti va “O’zbekneftgaz” AJ hamkorligida amalga oshiriladigan aniq rejalar belgilab olindi va “Yo’l xaritasi” loyihasi tayyorlandi.